

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

1-SHO'BA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVI JARAYONLAR

**Г.Юлдашев, М.Т.Исагалиев, А.Т.Турдалиев, У.Б.Мирзаев, И.Н.Мамажонов,
С.А.Махрамхужаев, З.М.Азимов**

Гумусное и энергетическое состояние горно-коричневых почв Западной Ферганы 9

**Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, U.M.Nomozov, K.A.Idirisov, S.Q.Mahammadiyev,
O.N.Imomov, B.B.Abdukarimov, Sh.Z.Abdullahayev, N.Y.Abdurahmonov, G.T.Djalilova,
Sh.M.Xoldorov, S.M.Małgorzata, W.Bogusław, Y.M.Tokhtasinova**

Orol dengizining qurigan tubida tarqalgan tuproq-gruntlarining radiologik xavfsizlik

ko'rsatkichlari 16

А.С.Вайнберг, Е.В.Абакумов

Микропластик в почвах: обзор экологических рисков 20

В.М.Гончаров, Е.В.Шеин

Гранулометрия как физическая основа биогеохимических процессов 24

**G.T.Parpiyev, N.J.Xushvaqtov, A.X.Shukurov, S.Sh.Hasilbekov, H.I.Ibodullayev,
D.H.Hasilbekova**

Kartoshka o'simligini *In vitro* sharoitida ko'paytirishda ozuqa muhitining tarkibi va
tayyorlanish texnologiyasi 30

О.Б.Цветнова, В.М.Гончаров, Ш.Я.Эшпулатов, Г.Х.Утанова

Влияние лесных насаждений на свойства темно-серых лесных почв 35

Е.И.Походня, Е.В.Абакумов

Экотоксикологическая оценка почв Юнтоловского заказника 40

**G'.Yuldashev, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov,
S.A.Maxramxujayev**

Gipergen sharoitda pedogen elementlar biogeokimyosi 44

U.B.Mirzayev, M.Ibroximova, F.Yulbarsova, F.Toyloqova, J.Komilov

Farg'ona viloyati sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligi va uni oshirish muammolari 53

A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, A.A.Ahmadjonov, D.O.Anafiyayeva

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda biomikroelementlarning biogeokimyosi 58

Z.M.Azimov, G'.Yuldashev, N.Sh.Yusufjonova

Madaniy fitomeliorant o'simliklarning biogeokimyosi 64

V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov

Landshaft ekologik holatni Yozyovon (Markaziy Farg'ona) suv ombori ta'sirida o'zgarishi 67

K.A.Asqarov, A.A.Ahmadjonov, I.I.Musayev, A.A.Xalilov

Sug'oriladigan tuproqlarda biomikroelementlar geokimyosi 74

I.M.Yusupov

Tuproq unumdorligini oshirishda anaerob azotofiksator baccillaceae oilasiga kiruvchi
Clostridium pasteurianum bakteriyasining tuproqda indikatorligi va ahamiyati 80

Z.J.Isomiddinov, S.M.Isag'aliyeva

Janubiy Farg'ona cho'l tuproqlari va piyoz (*Allium cepa L.*) o'simligi biogeokimyosi 84

M.X.Diyorova, Q.M.O'rroqov

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar miqdori 88

H.T.Artikova, S.S.Shadiyeva

Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarining xossa-xususiyatlari tadqiqi 91

M.X.Diyorova, S.N.Holiqova, M.F.Mamadiyorov

G'uzor massivida tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari 96

Z.J.Isomiddinov, M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev

Tog'li jigarrang tuproqlar va *Allium karataviense* regel, *Fritillaria sewerzowii* regel
o'simliklari biogeokimyosi 101

M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev, M.I.Aktamov, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlar geokimyosi 107

2-SHO'BA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR**RIVOJLANISH OMILI**

J.Ismakov, O'.X.Mamajanova, G.N.Kattayeva, A.T.Do'saliyev

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarida elementlarning geokimyoviy akkumulyatsiyasi 113



УО'К: 626.86: 575.1

BUXORO TUMANI SUG'ORILADIGAN TUPROQLARINING XOSA-XUSUSIYATLARI TADQIQI

ИЗУЧЕНИЕ СВОЙСТВ ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ БУХАРСКОГО РАЙОНА

STUDY OF PROPERTIES OF IRRIGATED SOILS OF BUKHARA DISTRICT

Artikova Hafiza To'yumurodovna¹ 

¹Buxoro davlat pedagogika instituti professori, b.f.d.

Shadiyeva Sayyora Sadulloyevna² 

²TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute, tadqiqotchi

Annotatsiya

Respublikamizning 4304,32 ming hektar sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi (50% ga yaqin) turli darajada sho'rangan tuproqlami tashkil etib, bu holat sug'oriladigan hududlarda qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiyligini pasaytiradi. Ushbu maqolada Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlari va ularning agrofizikaviy xossalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari tuproq unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlari keltirilib o'tilgan.

Аннотация

Основная часть из 4304,32 тыс. га орошаемых земель нашей республики (около 50%) состоит из почв различной степени засоления, что снижает общую продуктивность сельскохозяйственных культур на орошаемых территориях. В данной статье представлена подробная информация об орошаемых почвах Бухарской области и их агрофизических свойствах. Кроме того, были представлены мероприятия по повышению плодородия почв.

Abstract

The main part of 4304.32 thousand hectares of irrigated land of our republic (about 50%) consists of soils with varying degrees of salinity, which reduces the overall productivity of agricultural crops in irrigated areas. This article provides detailed information about the irrigated soils of Bukhara district and their agrophysical properties. In addition, measures to improve soil fertility were presented.

Kalit so'zlar: sug'oriladigan tuproqlar, tuproqlarni mexanik tarkibi, Zarafshon daryosi delta, melioratsiya, tuproq unumdorligi, sug'orish me'yorni, sho'rhanish, ona jins, proluvial, alluvial, loessimon qumoqlar, grunt suvlari, mineralizatsiya.

Ключевые слова: орошаемые почвы, механический состав почв, дельта реки Зерафшан, мелиорация, плодородие почв, нормы орошения, засоленность, материнская порода, пролювиальные, аллювиальные, лессовые пески, подземные воды, минерализация.

Key words: irrigated soils, soil mechanical composition, Zarafshan river delta, reclamation, soil fertility, irrigation standards, salinity, parent rock, proluvial, alluvial, loess sands, groundwater, mineralization.

KIRISH

Buxoro viloyati Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan bo'lib. Butun voha bo'yicha keng va qisqa daryo yotqiziqlarida hosil bo'lgan maydonlardan iborat. Daryoning keng qismida Buxoro quyi qismida esa Qora ko'l vohalari joylashgan [1, 2, 3, 4].

Buxoro vohasi Navoyi – Konimiex Xazaraning turtib chiggan Avtobacha va Qiziltepa plotasining uchlamchi yotqiziqlariga kirib boradi. Buxoro viloyati qishloq xo'jaligini tabiiy rayonlashtirilishi bo'yicha O'rta Osiyo cho'l provintsiyasi janubiy Qizilqum va shimoliy Qizilqum okrularining subtropik cho'l hududiga kiradi [11, 12].

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida ekologik-meliorativ vaziyat yomonlashishining sababi mavjud suv-yer zahiralardan ekstensiv tartibda foydalanishning oqibatidir. Yangi yerlarni o'zlashtirishga oid loyihalarning barchasida kollektor-zovur tarmoqlari suvlarini pastliklar va daryo o'zanlariga tashlash rejalashtirilgan edi.

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

Nazariy va amaliy asoslanmagan loyihalarni keng miqyosda amalga oshirish natijasida daryo suvlari sifati keskin yomonlashadi, o'zlashtirilgan maydonlar atrofida sun'iy ko'llar, botqoqliklar vujudga keladi, tabiiy muvozanat buziladi, ekologik holat yomonlashadi.

Sho'rланishning eng salbiy tomoni u tuproq strukturasini buzadi, suv-fizikaviy, fizik-kimyoiy xossalari yomonlashtiradi, tuproqlarning mikrobiologik faolligi va boshqa hossalariga ta'sir ko'rsatib, tuproq degradatsiyasini keltirib chiqaradi.

Sho'rланган va ikkilamchi sho'rланishni oldini olish va melioratsiya muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda xaydalma yerlarda "Sho'rланган tuproqlarni xaritaga tushirish" ishlarini amalga oshirish zarur.

Buning uchun hududlarni tekshirish, tuproq qoplamini hamda tuproq gruntlarini sho'rланish darajasini, sho'rланish tiplarini sinchiklab o'rganish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buxoro tumani iqlim sharoitlariga ko'ra, yarim cho'l zonasasi kontinental subtropik iqlim guruhiiga kiradi. Tuman iqlim keskin kontinentalligi va nihoyatda quruqligi bilan ajralib turadi. Bu hudud uchun tropik va mo'tadil havo massasining fasllar bo'yicha al mashlab turishi, yilning issiq paytlarida trasperatsiya jarayonlarining jadallahishi, sovuq davrlarda esa qutb fronti Osiyo oqimining kuchayishi xarakterlidir. Shuning uchun Buxoro tumanida yoz oylarida barqaror quruq va jazirama, qishda esa o'ta beqaror sovuq ob-havo hukm suradi.

Buxoro tumanining sug'oriladigan yerlari asosan to'rtlamchi davr yotqiziqlari-lyoss, allyuvial va prolyuvial jinslarda rivojlangan.

Bu to'rtlamchi qatlammng qalinligi 17-20 m ba'zida esa 30 m ni tashkil etadi. Bu yotqiziqlar tarkibi shag'al, qum, qumoq va agroirrigatsion qatlamlardan tuzilgan bo'lib, ular har qatlama va turli chuqurliklarda uchraydi.

Zarafshon daryosi deltasi yuqori qismida to'rtlamchi jinslarida tosh, shag'al va qumlar uchrasa, o'rtaligida qum, so'ngra qumoq, soz va goh-goh loylar tarqalgan.

To'rtlamchi allyuvial yotqiziqlar ustida agroirrigatsion qatlamlar (1-3 m) rivojlangan bo'lib, ular inson faoliyati ta'sirida hosil bo'lgan.

Buxoro tumani sug'oriladigan yerlari shu jumladan F.Aloyev, O.Ubaydov eramizdan oldingi V-VI asrlarda 14-20 m chuqurlikda joylashgan to'rtlamchi allyuvial yotqiziqlar ustida rivojlangan. Hozirgi kunlarda bu allyuvial yotqiziqlarning yuqori qismi zamonaviy, madaniy antropogen agroirrigatsion qatlamlar bilan qoplangan. Sizot suvlarning sathi va mineralashuv darajasi shu mahalliy hamda allyuvial jinslarda tarqalgan bo'lib, turli mikro va mezorelyef ta'sirida davrma-davr har-xil sho'rланish jarayonlarining hosil bo'lishiga olib keladi [2, 5, 6, 7, 8].

Buxoro tumanlaridan olingan tuproq namunalarini laboratoriya sharoitida kimyoiy analiz qilinib, tuzlarning miqdori aniqlandi va ulardagisi suvli so'rimning I va II metodi (Lebedev) bo'yicha sho'rланish tipi va darajasi aniqlandi.

Dala izlanish va laboratoriya tahlillari natijasida tuzlarning miqdoriy ko'rsatkichlari, sho'rланганlik darajasi va sho'rланish tiplari tumanning turli maydonlarida turlicha ekanligi aniqlandi.

Sho'rланган tuproqlarni qayd qilish, hisobga olish va xaritogramma tuzishning birinchi manbalari bo'lib, suvli so'rim analizlariga asoslangan xaritalashtirish materiallari hamda tuproq sho'rланishi darajasini aniqlashning boshqa zamonaviy tezkor usullari (elektrokonduktrometrik usul) ma'lumotlari xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sho'r yuvishda tuproqlarning sho'rланish darajasi, mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanligi (suv-fizikaviy xossalari) hamda ildiz tarqaladigan qatlampagi (0-1 m) tuzlar miqdori va zahiralari hisobga olinishi zarur. Sho'r yuvish uchun suv me'yordi mexanik tarkibiga qarab turlicha sarflanadi. Tuproq gruntlari mexanik tarkibiga ko'ra yengil qatlamlili tuproqlarda o'ttacha 3000-3500 m³/ga, o'ttacha sho'rланган yerlarda 2-3 marta suv bostirish orqali 3500-5000 m³/ga, kuchli sho'rланган yerlarda 3 marta suv bostirish orqali 4000-5000 m³/ga va juda kuchli sho'rланган turli mexanik tarkibdagi tuproqlarda marzalar (cheklar)ga 3-4 marta suv bostirish orqali 5000-6500 m³/ga hamda kuchli va juda kuchli sho'rланган og'ir mexanik tarkibli tuproqlarda 3-4 marta suv bostirish orqali 6000-7500 m³/ga me'yordi mexanik tarkibli tuproqlarda 3-4 marta suv bostirish orqali 6000-7500 m³/ga me'yordi sho'r yuviladi. Sho'r yuvishdan keyingi tuproqdagagi tuzlar muqdori xlor-ioni 0,01% gacha va quruq qoldiq miqdorini esa 0,4-0,6% gacha kamaytirish talab etiladi. Sho'r yuvish me'yordarini belgilashda O'zPITI (hozirgi PSUEMTI) (paxta seleksiyasi

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVİY JARAYONLAR

urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyasi ilmiy tadqiqot instituti) ning tavsiyalaridan (jadval) va mavjud ma'lumotlardan (sho'rlanish kartogrammalari asosida A.E.Nerozin formulasi bo'yicha) foydalaniadi [2, 9, 10].

Sug'oriladigan sho'r yerlarda joriy sho'r yuvish me'yori va muddatlari

Tuproqning mexanik tarkibi va tuzilishi	0-100 cm sm qatlamdag'i xlor miqdori, %	Umumiyoq sho'r yuvish me'yori, m ³ /ga	Sho'r yuvish soni	Sho'r yuvish muddati (oylar)
Buxoro tumani				
Tuproq gruntlar mexanik tarkibiga ko'ra yengil qatlamlari	0,01-0,04	2000-2500	1	III
	0,04-0,10	2500-4000	2	III
Tuproq gruntlar o'rta qumoqli, qatlamlari mexanik tarkibiga ko'ra har xil	0,01-0,04	3000-3500	1	XII-II
	0,04-0,10	3500-5000	2	XII-II
Tuproq gruntlar loyli va og'ir qumoqli, bir xil jinsli va qatlamlari	0,01-0,04	4000-5000	2	X-I
	0,04-0,10	5000-6500	3	X-I

Buxoro tumanining gidrogeologik sharoitlari o'ta murakkab bo'lib, yer osti suvlarning asosiy manbalari, sug'orish tarmoqlari va sug'oriladigan dalalardan shimilib ketayotgan suvlari, shuningdek, Zarafshon daryosidan oqib tushayotgan yer osti suvlari hisoblanadi va ular sizot suvlari balansida asosiy o'rinni egallaydi.

Sizot suvlari 1-2 m dan 2-3 m chuqurlikda aniqlangan. Pastqamliliklarda grunt suvlari 1-2 m dan, hatto 0,5-1 m chuqurlikdan aniqlangan, bu yerlarda o'tloqi va botqoq-o'tloqi tuproqlar shakllangan.

Tabiiy va sun'iy zovurlashgan tuman sharoitida ko'p yillar davomida yuqori me'yordorda sug'orish natijasida katta miqdorda shimilib ketayotgan suvlari yer osti sizot suvlari bilan qo'shilishib, ularning yer yuzasiga keskin ko'tarilishiga imkon yaratmoqda, bu jarayon o'z navbatida tuproqlarda jadal tuz to'planishiga, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatining yomonlashuviga olib kelmoqda. Sizot suvlari holati mavsumiy xarakterga ega bo'lib, vegetatsiya davri tugagach bu yerlar uchun xos bo'lgan chuqurlik 2-3 metrgacha pasaysa, vegetatsiya davrida 0,5-1,5 metrgacha ko'tariladi, mavsumiy tebranish amplitudasi 1,0-1,5 metrni tashkil etadi. Tuman hududining asosiy qismida, ularning qaysi geomorfologik rayonlarga mansubligidan qat'iy nazar maqbul chuqurlikdan ancha yuqori joylashganligi, o'z navbatida tuproq hosil bo'lisch va tuproq sho'rlnish jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tuproq mexanik tarkibining yengillashishi bilan so'rish kuchi ham suvni ko'tarilish ustuni ham kamayadi, sho'mi yuvish yengillashadi, teskarisi bo'lsa, nafaqat yuvish qiyinlashadi, shuning bilan birga sho'r sizot suvlarning kapillyar bilan ko'tarilishidan tuproqning ildiz tizimi joylashgan chuqurliklarda paydo bo'lgan sho'r o'simlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi [4, 7, 13, 14].

Ilmiy izlanishlar davomida shu narsa aniq bo'ldiki bu tuproqlarning mexanik tarkibidagi fizik loyning miqdori kanaldan uzoqlashgan sari o'zgarib boradi. Agar kanalga yaqinroq maydonlarda joylashgan yerlarda fizik loy miqdori 0-66 sm qalinlikda 30-32% bo'lsa, 200 va 300 m da joylashgan yerlarda bu fraksiyalar miqdori 40% ga qadar oshadi. O'rta qumoq fraksiyalarini miqdori tuproq kesmasidagi gorizontlarda ko'payishi bilan bir qatorda, kanaldan uzoqlashgan sari maydonlarda og'ir qumoqli tuproqlar hosil bo'lishi kuzatiladi. To'plangan ma'lumotlarga asosan, o'rganilgan

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

tuproqlarning mexanik tarkibi yuqoridagi qonuniyatlar asosida miqdor va sifat jihatidan o'zgarishi nafaqat tuproq hosil qiluvchi ona jins va relyef ta'sirida bog'liq bo'lib balki muallaq oqizmalarning loyqalik darajasiga, sug'orish shaxobchalarining uzunligiga dalada joylashgan o'qariqlarda oqadigan suvlardagi zarrachalarning tarkibiga ham bog'liq. Buxoro tumani tuproqlari dasht tuproqlari mintaqasida tarqalgan.

Tumanning tuproqlari asosan sug'oriladigan taqir-o'tloki, sug'oriladigan o'tloqi-cho'l, sug'oriladigan o'tloqi, sugariladigan o'tloki allyuvial va botqoq-o'tloqi tuproqlardan iborat.

Sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar o'zlashtirishni dastlabki davrida kam gumusligicha qoladi (0,7-0,8%), azot esa 0,06-0,07%. Tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra yengil, o'rta va og'ir qumoqli, qirrali chag'ir toshliroq, 0,5-1,0 m dan shag'al qatlamlar joylashgan.

Tuproqlarda karbonatlar miqdori 8-10%. gacha bo'ladi. Tuproq kesimi bo'yicha ularning tarqalish mexanik tarkib bilan bog'liq. Taqirli-o'tloqi tuproqlar kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rangan. Tuzlar tarkibida asosan sulfatlar ustunlik qiladi.

Zarafshonning subaeral deltasida sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlar eng kam tarqalgan. Ular sizot suvlari chuqurligi 1-2 m oralig'ida, ya'ni intensiv grunt-kapillyar namlanish sharoitida tarkib topadi. O'tloqi tuproqlar, avtomorf sharoitda gidromorf (o'tloqi) sharoitga tadrijiy o'zgargan sharoitda, o'zlashtirish va ishlab chiqarishga jalb qilish, yaxshi ishlaydigan kollektor-zovurlar tarmog'i fonida o'tkazilishi kerak.

XULOSA

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarni cho'l zonasining boshqa tuproqlariga solishtirilganda ular gumus miqdori (1,1-1,45%) va azotga (0,08-0,12%) birmuncha boy. Gumusni agroirrigatsion oqizma loyqalarga chuqur kirib borishi tuproq kesimida uning zahirasini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Qadimgi allyuvial va delyuvial-prolyuvial yuzalarda tarkib topgan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda gumus oz (0,5-0,7), chunki ularning o'tmishdoshi – sur-qo'ng'ir yoki taqirli tuproqlarda organik modda miqdori kam bo'lgan.

Bu tuproqlarda gips oz miqdorda (0,12-0,25%) va u sho'rtoblanish jarayonini rivojlanishiga to'siq bo'la olmaydi. Shu sababli ildiz tarqalgan qatlamning quyi qismiga, ayrim hollarda singdirish sig'imi tarkibiga natriy va magniy ionining kirishi hisobiga sho'rnanish sodir bo'ladi. Sho'rnanish tuproqning suv o'tkazish ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi. Tuproqni sug'orishlardan so'ng zichlashishi va boshqa salbiy xususiyatlarini vujudga keltiradi. Karbonatlilik tuproq kesimi bo'yicha tekis – 8,8-9,3 % CO₂. Umuman, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar birmuncha yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega va Buxoro viloyatining yer fondini qimmatli qismini tashkil etadi.

Zarafshonning hozirgi va qadimgi deltalari, shuningdek uning qayir va birinchi qayir usti terassasi maydonlaridagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar orasidagi kichik massivlarda botqoq-o'tloqi tuproqlar joylashgan, ularning ko'p qismi sug'oriladigan tuproqlar hisoblanadi. Bu tuproqlar lokal botiqlarda sizot suvlari sathi 0,5-1 m bo'lgan, kuchli sho'rnanish jarayoni ketayotgan sharoitda tarkib topadi. Shuning uchun bu tuproqlar nafaqat botqoqlanish, balki sho'rnanishga ham uchraydi. Ular asosan kuchsiz va o'rtacha darajada sho'rangan holatda uchraydi.

Mexanik tarkibiga ko'ra tuproqlar og'ir va o'rta qumoqli hisoblanadi. botqoq-o'tloqi tuproqlarning haydalma qatlamida gumus miqdori 3% atrofida. Umumi fosfor zahirasi, shuningdek kalyi bo'yicha bu tuproqlar kam ta'minlangan.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda ham birinchi navbatda sog'lomlashtirishga muhtoj meliorativ obyektlarni to'g'ri tanlash niyoyatda muhim hisoblanib, bu masalaga ilmiy amaliy tomondan majmuaviy yondashish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya, va davlat kadastri davlat qo'mitasi va Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti tomonidan ishlab chiqilgan: "Sho'rangan yerlarni xaritalashtirish, hisobga olish va sho'r yuvish me'yorlarini aniqlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma". 2014 yil. 45-46 b.
2. Умаров М. Физические свойства почв районов нового и перспективного орошения УзССР. -Ташкент, «Фан», 1974, -280 с.
3. Qurvontoyev R., Xalberdiyeva M.R.T uproqda qatqaloq hosil bo'lishini oldini olish usullari. // Tezisi dok. res. konf., - Guliston, 1994.- 228 b.
4. Qurvontoyev R. Tuproq unumdorligini oshirish usullari. // Tuproq unumdorligini oshirishning dolzarb muammolari, ilmiy to'plam. -Toshkent, 1995. - B. 30-33.

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

5. Qurvantoyev R., Turg'unov M., Musurmonov A. Tuproq unumdorligini oshirishda ular agrofizik xossalarini e'tiborga olgan holda ishlov berish masalalari. // Tuproq resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy asoslari. Maqolalar to'plami, - Toshkent, 2011. - B. 142-148.
6. Sattorov J.S. O'zbekiston sug'oriladigan tuproqlari unumdorligi o'zgarishi, uni oshirish va muhofaza qilish konsepsiysi. "Atrof muhit o'zgarishi sharoitida yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar. Toshkent. 2016. 70 b.
7. O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamilari atlasi. Toshkent. 2010. 18-19 b.
8. Artikova X.T. Buxoro vohasi tuproqlarning evolyutsiyasi, ekologik holati va unumdorligi. Avtoref. dok. diss. (DSc). –Toshkent, 2019. 62 b.
9. Гафуров К., Абдуллаев С. Характеристика почвенного покрова орошаемой зоны Бухарской области.- Ташкент: Изд-во «Фан», 1982.-130 с.
10. O'zbekiston sug'oriladigan yerlarining meliorataiv holati va ularni yaxshilash. Universitet nashriyoti. 2018 yil. 304 bet.
11. Kurvantayev R., Nazarova S.M. Zarafshon vohasi quyi oqimi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining agrofizikaviy holati. –Buxoro.2021.- 142 b.
12. Nazarova S.M., Kurvantayev R. Buxoro vohasi tuproqlari / "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnalining "Agro ilm" ilmiy ilovasi. –Toshkent, 2012. №3 (23). - B. 54-55.
13. Турсунов Л. Водно-физические свойства и скорость реставрации солей в орошаемых почвах Каракульского оазиса Бухарской области. Автореферат. канд. дисс.- Ташкент. 1968.- 30 с.
14. Yuldasheva X., Namozov X. Sug'oriladigan xududlar tuproqlarning xozirgi meliorativ xolati va ularning unumdorligini biologik usullar bilan oshirish yo'llari. "Fan va texnologiya", nashriyoti,2020- 284-298 b.